

2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun
dastlabki ma'lumot



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(75) 221-44-28



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryoda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **463630,1 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **48866,5 ming AQSH** dollariga yoki **11,8 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **463630,1** +11,8 %
(2022- y.: 414763,6)



Saldo

2023- y.: **134774,3**
(2022- y.: 29510,8)



Eksport

2023- y.: **299202,2** +34,7 %
(2022- y.: 222137,2)



Tovarlar: **296440,9**



Xizmatlar: **2761,3**



Import

2023- y.: **164427,9** -14,6 %
(2022- y.: 192626,4)




Tovarlar: **163016,0**



Xizmatlar: **1411,9**






Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.






 TSAda eksport hajmi **299202,2** ming AQSH dollariga (**34,7 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **164427,9** ming AQSH dollariga (**14,6 %** ga kamaydi).

Hisobot davrida **134774,3** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
(2023- yil yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)

XXR	Turkiya	Rossiya Federatsiyasi	BAA	Qozog‘iston
TSA – 89761,7	TSA – 81055,2	TSA – 71265,9	TSA – 34504,0	TSA – 29361,2
Eksport: 30079,0 Import: 59682,7	Eksport: 67482,8 Import: 13572,4	Eksport: 50891,7 Import: 20374,2	Eksport: 34462,3 Import: 41,7	Eksport: 13958,4 Import: 15402,8
 19,4 %	 17,5 %	 15,4 %	 7,4 %	 6,3 %

Pokiston	Latviya	Polsha	Misir	Vetnam
TSA – 17494,2	TSA – 15811,8	TSA – 14329,9	TSA – 9920,6	TSA – 9509,3
Eksport: 16277,4 Import: 1216,8	Eksport: 65,1 Import: 15746,7	Eksport: 13221,4 Import: 1108,5	Eksport: 9904,7 Import: 15,9	Eksport: 9447,0 Import: 62,3
 3,8 %	 3,4 %	 3,1 %	 2,1 %	 2,1 %

Qashqadaryo viloyati jahonning **72** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**19,4 %**), Turkiyada (**17,5 %**), Rossiya Federatsiyasida (**15,4 %**), BAAda (**7,4 %**), Qozog'istonda (**6,3 %**), Pokistonda (**3,8 %**) va Latviyada (**3,4 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)



Turkiya – 81055,2



Rossiya Federatsiyasi – 71265,9



BAA – 34504,0




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **12** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **8** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
XXR	85645,2	79259,1	89761,7
 Eksport	25852,4	12895,0	30079,0
Import	59792,8	66364,1	59682,7
Turkiya	89320,8	108075,3	81055,2
 Eksport	50635,2	82607,1	67482,8
Import	38685,6	25468,2	13572,4
Rossiya Federatsiyasi	51118,1	65206,0	71265,9
 Eksport	28176,0	45579,2	50891,7
Import	22942,1	19626,8	20374,2
BAA	992,7	834,9	34504,0
 Eksport	244,0	678,9	34462,3
Import	748,7	156,0	41,7
Qozog'iston	27416,8	19518,7	29361,2
 Eksport	12476,3	8378,0	13958,4
Import	14940,5	11140,7	15402,8
Pokiston	12133,3	7958,7	17494,2
 Eksport	11794,5	7771,6	16277,4
Import	338,8	187,1	1216,8
Latviya	1142,8	265,0	15811,8
 Eksport	62,4	210,1	65,1
Import	1080,4	54,9	15746,7
Polsha	4744,7	9421,4	14329,9
 Eksport	4294,2	7898,9	13221,4
Import	450,5	1522,5	1108,5
Misr	1494,7	1550,4	9920,6
 Eksport	1475,2	1550,0	9904,7
Import	19,5	0,4	15,9
Vetnam	150,0	1886,6	9509,3
 Eksport	150,0	1886,4	9447,0
Import	0,0	0,2	62,3


Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Tojikiston	9580,7	3517,9	9539,4
 <i>Eksport</i>	9192,0	1670,8	9097,4
<i>Import</i>	388,7	1847,1	442,0
Qirg'iz Respublikasi	7393,3	14882,9	8828,9
 <i>Eksport</i>	6147,2	9975,8	4461,1
<i>Import</i>	1246,1	4907,1	4367,8
Eron Islom Respublikasi	9047,8	17155,8	8552,4
 <i>Eksport</i>	6893,8	13944,1	7113,0
<i>Import</i>	2154,0	3211,7	1439,4
AQSH	1652,9	1293,6	7094,2
 <i>Eksport</i>	13,5	10,1	4763,8
<i>Import</i>	1639,4	1283,5	2330,4
Hindiston	3402,2	10127,8	6385,6
 <i>Eksport</i>	2666,3	6656,4	4844,5
<i>Import</i>	735,9	3471,4	1541,1
Afg'oniston	10206,0	9866,7	5648,4
 <i>Eksport</i>	10194,8	9678,7	5573,0
<i>Import</i>	11,2	188,0	75,4
Germaniya	6938,8	15634,1	5121,2
 <i>Eksport</i>	428,2	1310,6	259,0
<i>Import</i>	6510,6	14323,5	4862,2
Koreya Respublikasi	4034,3	4821,4	4414,8
 <i>Eksport</i>	7,4	260,3	8,5
<i>Import</i>	4026,9	4561,1	4406,3
Litva	957,4	1266,1	3738,9
 <i>Eksport</i>	194,6	0,0	0,0
<i>Import</i>	762,8	1266,1	3738,9
Belarus Respublikasi	2198,4	6843,8	3651,3
 <i>Eksport</i>	676,3	1077,3	1468,5
<i>Import</i>	1522,1	5766,5	2182,8




QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-sentabr oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	463630,1	111,8	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	19342,9	110,5	4,2
Dehqonobod	15916,1	118,3	3,4
Qamashi	13822,4	90,3	3,0
Qarshi	62592,9	62,4	13,5
Koson	28188,5	63,5	6,1
Kitob	25829,5	60,4	5,6
Mirishkor	8854,3	91,7	1,9
Muborak	4939,6	50,9	1,1
Nishon	77588,6	7,4 m.	16,7
Kasbi	90334,7	171,8	19,5
Ko'kdala	7431,8	2,8 m.	1,6
Chiroqchi	7655,3	115,7	1,6
Shahrisabz	8622,7	90,6	1,9
Yakkabog'	16299,9	116,7	3,5
Qarshi sh.	71357,4	123,5	15,4
Shahrisabz sh.	4804,6	61,2	1,0
Boshqalar	48,9	22,5	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **19,5 %** ulush bilan **90334,7** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **1,0 %** ulush bilan **4804,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Qashqadaryo viloyatining, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **28,2 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **10,5 %** ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **12,3 %** ga ko'paygan va jami TSA'dagi ulushi **71,8 %** ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra, **130553,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **86132,9** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **44420,7** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 71265,9
Eksport – 50891,7
Import – 20374,2



Qozog'iston

TSA – 29361,2
Eksport – 13958,4
Import – 15402,8



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 8828,9
Eksport – 4461,1
Import – 4367,8



Belarus Respublikasi

TSA – 3651,3
Eksport – 1468,5
Import – 2182,8



Tojikiston

TSA – 9539,4
Eksport – 9097,4
Import – 442,0



Ozarbajjon

TSA – 1947,3
Eksport – 1488,2
Import – 459,0



Moldova Respublikasi

TSA – 2111,9
Eksport – 2111,9
Import – 0,0



Ukraina


TSA – 900,0
Eksport – 718,8
Import – 181,2




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**59,1** %), Qozog'iston (**16,2** %) hamda Tojikiston (**10,6** %) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **113905,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **71578,0** ming AQSH dollari, import hajmi esa **42327,6** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksport bop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **189** taga yetdi va ular tomonidan **299202,2** ming AQSH dollari qiymatini va (2022- yilning mos davriga nisbatan **34,7** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-sentabr oylarida ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-sentabr oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	222137,2	299202,2	121,4	134,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	35765,0	46198,8	109,8	129,2	16,1	15,4
Ichimliklar va tamaki	471,3	577,5	4,5 m.	122,5	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	5415,0	2935,5	2,3 m.	54,2	2,4	1,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	8255,9	49181,6	51,3	5,9 m.	3,7	16,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1139,3	94,3	100,8 m.	8,3	0,5	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	59,1	488,4	2,7 m.	8,3 m.	0,1	0,1
Sanoat tovarlari	165790,1	191107,7	132,8	115,3	74,6	63,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1524,8	5570,6	8,7 m.	3,6 m.	0,7	1,9
Turli xil tayyor buyumlar	127,7	13,2	195,0	10,3	0,1	-
Boshqa tovarlar	4,7	273,3	4,8	58,1 m.	-	0,1
Xizmatlar	3584,3	2761,3	53,9	77,0	1,6	0,9


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,1 %** ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (**63,9 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**15,4 %**) va mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (**16,4 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariga **86132,9** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **28,8 %** ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, BAA, XXR, Pokiston, Qozog'iston va Polsha kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **75,7 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-sentabr oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-sentabr oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Turkiya	82607,1	67482,8	163,1	81,7	1	1
Rossiya Federatsiyasi	45579,2	50891,7	161,8	111,7	2	2
Birlashgan Arab Amirligi	678,9	34462,3	2,8 m.	50,8 m.	17	3
XXR	12895,0	30079,0	49,9	2,3 m.	4	4
Pokiston	7771,6	16277,4	65,9	2,1 m.	9	6
Qozog'iston	8378,0	13958,4	67,2	166,6	7	7
Polsha	7898,9	13221,4	183,9	167,4	8	5
Misr	1550,0	9904,7	105,1	6,4 m.	14	9
Vetnam	1886,4	9447,0	12,6 m.	5,0 m.	12	8
Tojikiston	1670,8	9097,4	18,2	5,4 m.	13	11
Eron Islom Respublikasi	13944,1	7113,0	2,0 m.	51,0	3	13
Afg'oniston	9678,7	5573,0	94,9	57,6	6	10
Hindiston	6656,4	4844,5	2,5 m.	72,8	10	12
Amerika Qo'shma Shtatlari	10,1	4763,8	74,9	471,7 m.	18	14
Qirg'iz Respublikasi	9975,8	4461,1	162,3	44,7	5	16
Moldova Respublikasi	2017,4	2111,9	124,6	104,7	11	15
Bangladesh	-	2014,8	-	-	-	18
Marokash	-	1589,4	-	-	-	17
Ozarbajjon	1274,0	1488,2	15,4 m.	116,8	15	19
Belarus Respublikasi	1077,3	1468,5	159,3	136,3	16	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-sentabr oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	299202,2	134,7	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	5087,0	90,7	1,7
Dehqonobod	7931,5	141,1	2,6
Qamashi	8750,5	70,2	2,9
Qarshi	54137,0	74,7	18,1
Koson	25416,1	88,2	8,5
Kitob	7755,8	118,3	2,6
Mirishkor	5449,8	87,7	1,8
Muborak	3236,9	45,2	1,1
Nishon	57558,7	29,6 m.	19,2
Kasbi	79522,9	2,4 m.	26,6
Ko'kdala	5853,6	2,7 m.	2,0
Chiroqchi	6826,5	167,5	2,3
Shahrisabz	7110,1	114,6	2,4
Yakkabog'	6279,8	82,6	2,1
Qarshi sh.	16280,4	79,6	5,4
Shahrisabz sh.	1956,7	146,0	0,7
Boshqalar	48,9	22,5	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Kasbi

79522,9

Nishon

57558,7

Qarshi

54137,0

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Shahrisabz sh.

1956,7

Muborak

3236,9

G'uzor

5087,0

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **26,6 %** bilan **79522,9** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **0,7 %** bilan **1956,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.






Xususan, 2023- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo‘yicha **188741,7** ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **62,9** % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **17,4** % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**87,6** %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (**9,9** %) asosiy ulushni egallagan.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)



		2022- yil	2023- yil
Jami		160823,8	188741,7
	Ip kalava	139345,1	165410,1
	Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari	19405,9	18724,6
	Trikotaj mato	944,4	2153,1
	Gazlamalar	1128,4	2453,9
	Paypoq mahsulotlari	-	-

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI *(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari)*



		2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
	Turkiya	82018,0	67092,3	81,8
	Rossiya Federatsiyasi	24196,5	33918,0	140,2
	XXR	11600,7	29532,0	2,5 m.
	Polsha	7450,4	12622,7	169,4
	Misr	1550,0	9904,7	6,4 m.
	Vetnam	1886,4	9447,0	5,0 m.
	Eron Respublikasi	11732,1	6240,1	53,2
	Qirg‘iz Respublikasi	7515,7	2493,9	33,2
	Moldova Respublikasi	1951,9	2111,9	108,2
	Bangladesh	-	2014,8	-
	Qozog‘iston	2157,5	2002,0	92,8
	Marokash	-	1589,4	-
	Belarus Respublikasi	1029,1	1357,0	131,9
	Tojikiston	1156,3	1731,4	149,7
	Boshqa davlatlar	6579,2	6684,5	101,6



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.


To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (**35,5 % – 67092,3** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**18,0 % – 33918,0** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr oylari ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **2761,3** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,9** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **23,0** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (**76,1** %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**22,0** %) va safarlar (turizm) (**1,9** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi **164427,9** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **85,4** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, sanoat tovarlari (**53,0** %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (**16,0** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**8,9** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **28198,5** ming AQSH dollariga kamaydi va **164427,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **1411,9** ming AQSH dollariga yetdi.




QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI *(yillar kesimida yanvar-sentabr oylari holati)*

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	192626,4	164427,9	85,5	85,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15484,5	16052,1	93,6	103,7	8,0	9,8
Ichimliklar va tamaki	-	33,7	-	-	-	0,1
Yoqilg‘idan tashqari nooziq-ovqat xomashyolar	1025,7	1032,2	49,6	100,6	0,5	0,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	6589,4	9656,4	138,8	146,5	3,4	5,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1473,5	892,4	3,8 m.	60,6	0,8	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	18323,9	14673,6	118,7	80,1	9,5	8,9
Sanoat tovarlari	121837,2	87198,2	73,2	71,6	63,3	53,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	20046,3	26336,9	156,4	131,4	10,4	16,0
Turli xil tayyor buyumlar	7187,9	6900,7	131,2	96,0	3,7	4,2
Boshqa tovarlar	163,2	239,8	10,3 m.	146,9	0,1	0,1
Xizmatlar	494,8	1411,9	34,7	2,8 m.	0,3	0,9

2023- yil yanvar-sentabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **27,0 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,3 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyati **59** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Koreya Respublikasi) jami importning **81,7 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-sentabr oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yillar kesimida yanvar-sentabr oylari holati)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	66364,1	59682,7	111,0	89,9	1	1
Rossiya Federatsiyasi	19626,8	20374,2	85,5	103,8	3	4
Latviya	54,9	15746,7	5,1	286,8 m.	20	2
Qozog'iston	11140,7	15402,8	74,6	138,3	5	3
Turkiya	25468,2	13572,4	65,8	53,3	2	5
Germaniya	14323,5	4862,2	2,2 m.	33,9	4	6
Koreya Respublikasi	4561,1	4406,3	113,3	96,6	9	8
Qirg'iz Respublikasi	4907,1	4367,8	3,9 m.	89,0	8	9
Litva	1266,1	3738,9	166,0	2,9 m.	17	7
Amerika Qo'shma Shtatlari	1283,5	2330,4	78,3	181,6	16	12
Italiya	1545,9	2301,0	103,5	148,8	14	13
Belarus Respublikasi	5766,5	2182,8	3,8 m.	37,9	7	10
Yaponiya	7963,0	1736,7	5,9 m.	21,8	6	11
Hindiston	3471,4	1541,1	4,7 m.	44,4	10	15
Kanada	1595,5	1518,5	100,1	95,2	13	17
Eron Islom Respublikasi	3211,7	1439,4	149,1	44,8	11	14
Pokiston	187,1	1216,8	55,2	6,5 m.	19	18
Polsha	1522,5	1108,5	3,4 m.	72,8	15	16
Turkmaniston	1936,5	1011,0	70,4	52,2	12	19
Fransiya	515,8	966,1	16,5	187,3	18	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-sentabr oylari)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	164427,9	85,4	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	14255,9	119,9	8,7
Dehqonobod	7984,6	102,0	4,9
Qamashi	5071,9	178,3	3,1
Qarshi	8455,9	30,5	5,1
Koson	2772,4	17,8	1,7
Kitob	18073,7	49,9	11,0
Mirishkor	3404,5	98,9	2,1
Muborak	1702,7	67,1	1,0
Nishon	20029,9	2,3 m.	12,2
Kasbi	10811,8	55,7	6,6
Ko'kdala	1578,2	3,3 m.	0,9
Chiroqchi	828,8	32,6	0,5
Shahrisabz	1512,6	45,7	0,9
Yakkabog'	10020,1	157,5	6,1
Qarshi sh.	55077,0	147,5	33,5
Shahrisabz sh.	2847,9	43,8	1,7
Boshqalar	-	-	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Qarshi sh. 55077,0

Nishon 20029,9

Kitob 18073,7

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Chiroqchi 828,8

Shahrisabz 1512,6

Ko'kdala 1578,2

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **33,5** % bilan **55077,0** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Chiroqchi tumani **0,5** % bilan **828,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Qashqadaryo investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **26336,9** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **31,3 %** ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **16,0 %** ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-sentabr oylari)




2023- yil yanvar-sentabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6290,7** ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **18418,1** ming AQSH dollari (**69,9 %**), Rossiya Federatsiyasi - **1569,1** ming AQSH dollari (**5,9 %**) va Turkiya – **879,8** ming AQSH dollari (**3,3 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **87198,2** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **28,4** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **53,0** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-sentabr oylari ulushi, % da)

33809,1 ming
AQSH doll.
ulushi – 38,8 %



XXR

11599,9 ming
AQSH doll.
ulushi – 13,3 %



Turkiya

7467,7 ming
AQSH doll.
ulushi – 8,6 %



Rossiya
Federasiyasi

15323,0 ming
AQSH doll.
ulushi – 17,6 %



Latviya

2926,9 ming
AQSH doll.
ulushi – 3,4 %



Koreya
Respublikasi




2023- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **34639,0** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- **33809,1** ming AQSH dollari (**38,8** %), Latviya - **15323,0** ming AQSH dollari (**17,6** %) va Turkiya – **11599,9** ming AQSH dollari (**13,3** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr oylari ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **1411,9** ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining **0,9** % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**83,0** %), ga tegishli bo'ldi.